

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**XALMURADOVA ZEBINISO SHAVKATOVNA**

**INGLIZ VA RUS BADIY MATNLARIDA QO‘LLANILGAN FRANSUZ  
LISONIY BIRLIKLARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)  
in philological sciences**

**Xalmuradova Zebiniso Shavkatovna**

Ingliz va rus badiiy matnlarida qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarning  
semantik va pragmatik xususiyatlari ..... 3

**Халмурадова Зебинисо Шавкатовна**

Семантические и прагматические особенности французских языковых  
единиц, использованных в английских и русских художественных текстах..27

**Khalmuradova Zebiniso Shavkatovna**

The semantic and pragmatic peculiarities of the French language units  
used in the English and Russian literary texts..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**XALMURADOVA ZEBINISO SHAVKATOVNA**

**INGLIZ VA RUS BADIY MATNLARIDA QO‘LLANILGAN FRANSUZ  
LISONIY BIRLIKLARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK  
XUSUSIYATLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4898 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdhti.uz](http://www.samdhti.uz)) hamda "ZiyoNyet" Axborot-ta'lim portalida [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qarshibayeva Uljon Davirovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Buzrukova Mahina Muhammadxonovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 18 » aprel soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin 61884 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3 » aprel kuni tarqatildi.  
(2025-yil 3 » aprel dagi № 7 raqamli reyestr bayonnomasi)



**T.A. Bushuy**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
rais o'rinbosari, filologiya fanlari  
doktori, professor

**O'.O'. Qo'ldoshev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida bugungi kunda bilingvizm hodisasi, uning struktur-semantik va pragmatik mohiyati, olamning milliy-madaniy manzarasining badiiy asarlarda aks etishi, jumladan, fransuz til birliklarining ingliz va rus adabiyotida qo‘llanilishi tadqiqiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Badiiy matnda qo‘llanilgan fransuzcha til birliklarining pragmatik vazifalari, turli ma‘no ifodalash imkoniyati hamda fransuz madaniyatining ingliz va rus adabiyotiga ta‘siri jahon xalqlarining umuminsoniy, ilmiy-ma‘rifiy, ma‘naviy-madaniy qadriyatlarini o‘rtasidagi uyg‘unlikni yoritish hamda har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida fransuz tili va adabiyoti, jahon tillari lug‘at tarkibidagi fransuzcha o‘zlashmalar va ularning o‘rni, fransuz adabiyoti va madaniyatining jahon adabiyotiga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganishga alohida e‘tibor berilmoqda. Asrlar davomida jahonda o‘zining nafisligi, o‘ziga xos ohangdorligi va alohida lingvomadaniy xususiyatlari bilan ajralib turgan fransuz tili va adabiyotini ilmiy o‘rganish, fransuz leksikasining boshqa tillarda qo‘llanishi, jahon adabiyoti asarlarida fransuz so‘z va iboralaridan keng foydalanish bilan bog‘liq muammolar muhokamasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Asarning g‘oyasini to‘g‘ri talqin qilish uchun fransuz tilini mukammal bilish, fransuz madaniyatidan xabardor bo‘lish u yoki bu hayot muhitini nafaqat tushunishga, balki his qilishga ham yo‘l ochadi. Mazkur jarayon turli pragmatik vazifalarni anglash, badiiy matnning ekspressivligi va chuqur semantik ma‘nosini batafsil o‘rganish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekistonda aholining keng qatlamiga xorijiy tillarni o‘rgatish va ularning jahon adabiyotini o‘qishiga, anglashiga erishish ustuvor vazifaga aylandi, zero chet tili va adabiyotini bilish, shubhasiz, inson dunyoqarashini kengaytiradi, uni ma‘lum bir tarixiy davr, o‘sha davrning madaniyati, muayyan lisoniy hamjamiyatning turmush tarzi va milliy stereotiplari bilan tanishtiradi. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish, yosh avlodga chet tillarini o‘rgatish, ulardan erkin foydalanadigan mutaxassislarini tayyorlash maqsadida barchamizdan yangicha fikrlashni, yanada unum bilan faoliyatda bo‘lishni talab qiladigan raqobat kuchayib borayotgan hozirgi jadal rivojlanish davrida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ilg‘or o‘qitish usullarini joriy etish orqali o‘qituvchilar oldiga yoshlarni barkamol tarbiyalash va ta‘lim jarayoniga yo‘naltirish vazifasi qo‘yilgan. Har qanday soha bo‘yicha zamonaviy pedagog jahon tizimiga integratsiyalashishi uchun chet tillarni bilishi zarur<sup>1</sup>. Shu yondashuv asosida qaralganida, dunyoda tarqalgan fransuz tili va adabiyoti, uning jahon adabiyotiga ko‘rsatgan ta‘siri, fransuz o‘zlashmalari va ularning semantik, pragmatik vazifalarini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubda oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillardagi Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Badiiy matndagi lisoniy vositalarning semantik, stilistik, lingvomadaniy va pragmatik ma‘nosini yoritish hamda tarjimashunoslik muammolarini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: Sh.Balli, V.G.Gak, S.C.Levinson, P.Newmark, E.Nida and C.Taber, E.Sapir, J.Schultz va b<sup>2</sup>. Masalan, S.C.Levinson lisoniy vositalarning pragmatik vazifalarini o‘rgangan. E.Nida va C.Taber bu vositalarning badiiy matndagi semantik, stilistik va pragmatik ma‘nosini tarjima matnida saqlab qolish bo‘yicha muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Badiiy matnda xorijiy o‘zlashmalarning qo‘llanilishi hamda badiiy matndagi til vositalarining lingvomadaniy va pragmatik jihatlari bir qator rus tilshunos olimlarining ilmiy tadqiqotlarida kuzatiladi<sup>3</sup>: N.F.Alefirenko, V.V.Vorobyov, A.A.

---

<sup>2</sup> Балли Ш. Французская стилистика. Изд. 2-е, стереотипное. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – 392 с.; Гак В.Г. Русский язык с сопоставлением с французским: Учебное пособие. Изд. 7-е, стереотипное. – Москва: URSS, 2014. – 264 с.; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 419 p.; Newmark P. Multilingual matters. Language arts and disciplines, 1998. – 226 p.; Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. – United Bible Society, 1969. – 312 p.; Sapir E. Language. The Status of Linguistics as a Science. // Linguistic Society of America, Dec. 1929. – Volume 5, № 4. – P. 207-214; Schultz J. Managing corporate communication: a cross-cultural approach. Macmillan International Higher Education, 2003. – 552 p.

<sup>3</sup> Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие. – Москва: Флинта-Наука, 2010. – 224 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва: Изд-во РУДН, 2008. – 240 с.; Залевская А.А. Текст и его понимание. – Тверь: Твер. гос. ун-т, 2001. – 177 с.; Китанина Э.А. Прагматика иноязычного слова в русском языке: Монография. – Ростов-на-Дону, 2005. – 305 с.; Комарова Л.И. Антропоцентризм художественного текста. // Вестник ТГУ, 2008. – Выпуск 8(64). – С. 99-103; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968.– 206 с.;

Zalevskaya, E.A.Kitanina, L.I.Komarova, L.P.Krysin, G.G.Molchanova, N.S.Naydenova, L.V.Chernets, L.A.Yurkina va b. Masalan, E.A.Kitanina o‘zlashma leksikaning pragmatik ma’nosini tadqiq qilgan. N.S.Naydenova fransuz tilining jahon adabiyotiga ko‘rsatgan ta’siri hamda jahon adabiyotining fransuz tilida yozilgan asarlarini tahlil qilgan. L.V.Chernets badiiy asarda qo‘llanilgan xorijiy so‘zlardan iborat personajlar nutqiga e’tibor qaratgan.

Badiiy matndagi lisoniy vositalarning semantik-stilistik, pragmatik va lingvomadaniy jihatlari o‘zbek olimlardan D.U.Ashurova, T.A.Bushuy, M.J.Daniyeva, U.D.Karshibayeva, D.A.Kiselyov, G.K.Mirsanov, G.X.Rakhimov, Sh.S.Safarov, Sh.Usmanova, M.Xakimov, X.Z.Xayrullayev va boshqalarning tadqiqotlarida<sup>4</sup> o‘z ifodasini topgan. Masalan, D.U.Ashurova badiiy matnni madaniyat eksponenti sifatida talqin qiladi. Sh.S.Safarov lisoniy birliklarning lingvokognitiv va pragmatik xususiyatlarini o‘rganadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va rus badiiy matnlarida qo‘llanilgan fransuz birliklarning struktur-semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va rus badiiy adabiyotiga fransuz madaniyati va adabiyotining ta’sirini o‘rganish hamda jahon adabiyotida fransuz adabiyotining o‘rnini aniqlash;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi badiiy matnlarda qo‘llanilgan fransuz birliklarning struktur-semantik xususiyatlarini yoritish;

ingliz va rus badiiy asarlarida fransuz birliklarining pragmatik vazifalari, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda tahlil qilish hamda izomorf va allomorf jihatlarni aniqlash;

ingliz va rus tillarida fransuz birliklarining badiiy matnlarda qo‘llanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va rus badiiy matnlarida qo‘llanilgan fransuz tili birliklari tanlangan.

---

Молчанова Г.Г. Холистика текста (на основе триады: система – языковая личность – текст) // Языки в современном мире. – том 2. – Москва, 2004. – С. 64-93; Найденова Н.С. «Мировая литература» на французском языке как феномен трансграничной художественной словесности. // Известия РАН. Серия литературы и языка, 2013. – том 72. - № 1. – С. 52-57; Чернец Л.В. Иноязычная речь в художественном произведении // Русская словесность, 2004. - № 7. – С.6-12; Юркина Л.А. Литературное произведение: основные понятия и термины. – Москва: Высшая школа, Академия, 2005. – 337 с.

<sup>4</sup> Ashurova D. Text Linguistics. – T.: Tafakkur qanoti, 2012. – 204 p.; Бушуй Т.А. Язык и культура. – Ташкент: Фан, 2017. – 184 с.; Daniyeva M.Dj. So‘z birikmalari pragmatikasi. – Qarshi: Intellect, 2023. – 284 b.; Karshibayeva U.D. XIX asr fransuz romantizm nasrining poetik xususiyatlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013. – 120 b.; Киселёв Д.А. Репрезентация и анафорические единицы французского языка: функциональный аспект. – Ташкент: Навруз, 2019. – 166 с.; Mirsanov G‘.Q. Diskurs tarkibida aspektual va temporallik mazmun ifodasi. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – 156 b.; Raximov G‘. Ingliz tili O‘zbekistonda: sosiolingvistik va pragmatik ko‘rsatkichlar. – Toshkent: “Tamaddun” nashriyoti, 2017. – 268 b.; Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 320 b.; Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск: Челябинский государственный институт культуры, 2018. – 315 с.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2019. – 245 b.; Xakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2013. – 176 b.; Xayrullaev X.Z. Lingvistik birliklarning aktuallashuvida iyerarxik munosabat. – Samarqand, 2025. – 70 b.

**Tadqiqot predmetini** ingliz va rus badiiy asarlarida qo‘llanilgan fransuz tili birliklarining struktur-semantik va pragmatik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada deskriptiv, qiyosiy-chog‘ishtirma, tasniflash, diskursiv tahlil hamda lingvostatistik metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ingliz va rus badiiy adabiyotiga fransuz madaniyatining ta’siri lisoniy va nolisoniy omillar doirasida o‘rganilgan hamda personajlarning nutqi, tashqi ko‘rinishi, turmush tarzi, taomnomalar va interyerlar tasvirlashnida qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarning ijobiy, salbiy, neytral baholarni ifodalovchi pragmatik vazifalari va denotativ / kontekstual ma’nolari yoritilgan;

ingliz va rus tillarida yozilgan badiiy asarlarda fransuz lisoniy birliklarining so‘z, birikma yoki gap shakli bo‘yicha struktur, ijobiy / salbiy konnotatsiya, denotativ va konnotativ ma’noga oid semantik xususiyatlari yoritilgan hamda ikkala tilda ularning struktur-semantik, morfologik aspektlar bo‘yicha izomorf va milliy-madaniy nuqtai nazardan allomorf xususiyatlari aniqlangan;

inglizcha va ruscha badiiy matnlarda fransuzcha so‘z, ibora va paremiyalarning murojaat, maslahat berish, tanbeh berish, inkor qilish va taklif berish kabi pragmatik vazifalari lingvistik asoslangan hamda bu birliklarning fransuz tarixi, jug‘rofiyasi, adabiyoti, san’ati va milliy madaniyati bilan bog‘liq lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida ochib berilgan;

ingliz va rus badiiy mantlarida fransuzcha lisoniy birliklarining ijobiy, salbiy va neytral his-tuyg‘ularni ifodalashda undov so‘zlar, evfemizm, takrorlash, antiteza va kinoya kabi ekspressiv-stilistik vositalari aniqlangan hamda badiiy personajlar o‘rtasidagi nutqiy aktlarida qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarining tagma’nosi, muloqot maqsadi va pragmatik samarasi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti badiiy asarning struktur-semantik, pragmatik va stilistik mazmuni erishilgan tahliliy materiallar bilan boyitilgan;

badiiy matnni uslubiyat va pragmatika nuqtayi nazaridan tahlil qilish va talqin qilish metodikasi yaratilgan;

fransuzcha birliklar qo‘llanilgan badiiy matnlarni boshqa tillarga tarjima qilish doir taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosliligi, antropotsentrik paradigmadagi qo‘llanilgan usullardan foydalanilganlik, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikni har tomonlama o‘rganishni yanada rivojlantirish uchun istiqbollarni ochib beruvchi tahlil va xulosalar asosida olingan natijalarning foydalanilayotganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari “Stilistika”, “Semantika”, “Pragmatika”, “O‘rganilayotgan til mamlakatlarining adabiyoti”,

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Matn talqini” fanlarini o‘qitishda, shuningdek, tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar yozishda foydalanilishi mumkinligida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va rus badiiy asarlarida qo‘llanilgan fransuz tiliga oid birliklarning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot asosida:

ingliz va rus badiiy adabiyotiga fransuz madaniyatining ta’siri lisoniy va nolisoniy omillar doirasida o‘rganilgan hamda personajlarning nutqi, tashqi ko‘rinishi, turmush tarzi, taomnomalar va interyerlar tasvirlashnida qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarning ijobiy, salbiy, neytral baholarni ifodalovchi pragmatik vazifalari va denotativ / kontekstual ma’nolari yoritish bo‘yicha natijalar Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+ dasturining 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida qo‘llanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-avgustdagi 1559/02-son ma’lumotnomasi). Dissertatsiya materiallari o‘qituvchilarning badiiy asarlarni talqin qilish, ulardagi fransuz lisoniy birliklarining struktur-semantik xususiyatlarini yoritish, badiiy matnni tarjima qilish, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi bilimni oshirish hamda stilistik va pragmatik vositalarni chuqur o‘rganish uchun xizmat qilgan;

ingliz va rus badiiy adabiyotiga fransuz madaniyatining ta’siri lisoniy va nolisoniy omillar doirasida o‘rganilgan hamda personajlarning nutqi, tashqi ko‘rinishi, turmush tarzi, taomnomalar va interyerlar tasvirlashnida qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarning ijobiy, salbiy, neytral baholarni ifodalovchi pragmatik vazifalari va denotativ / kontekstual ma’nolari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardan Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 14-avgustdagi 1558/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz badiiy matnlarda qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarining pragmatik vazifalari va lingvomadaniy jihatlarini tahlil qilish, talabalarning inglizbop badiiy asarlarni o‘qish va tarjima qilish, asliyat va tarjima matnni qiyoslash hamda turli pragma-stilistik vositalarni o‘rganish ko‘nikmalari til aspektlari amaliyoti va adabiyotshunoslik fani doirasida takomillashtirilgan;

inglizcha va ruscha badiiy matnlarda fransuzcha so‘z, ibora va paremiyalarning murojaat, maslahat berish, tanbeh berish, inkor qilish va taklif berish kabi pragmatik vazifalari lingvistik asoslangan hamda bu birliklarning fransuz tarixi, jug‘rofiyasi, adabiyoti, san’ati va milliy madaniyati bilan bog‘liq lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-chog‘ishtirma aspektda ochib berishga doir tavsiyalar Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan

moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” xalqaro loyihani amalga oshirishda va uning o‘quv jarayonida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-noyabrdagi 2587/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, foydalanilgan material o‘qituvchilarning badiiy asarlarni talqin qilish va badiiy matnlarni tarjima qilish qobiliyatini oshirish, badiiy matnlarda fransuz lisoniy birliklarning qo‘llanilishini o‘rganish, ularning struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi bilimni oshirish hamda stilistik va pragmatik vositalarni chuqur o‘rganish uchun xizmat qilgan;

ingliz va rus badiiy mantlarida fransuzcha lisoniy birliklarining ijobiy, salbiy va neytral his-tuyg‘ularni ifodalashda undov so‘zlar, evfemizm, takrorlash, antiteza va kinoya kabi ekspressiv-stilistik vositalari aniqlangan hamda badiiy personajlar o‘rtasidagi nutqiy aktlarida qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklarining tagma’nosi, muloqot maqsadi va pragmatik samarasini tahlil qilish xulosalaridan O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yil 21-avgust kuni efirga uzatilgan “Assalom Samarqand” ko‘rsatuvining navbatdagi sonini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 6-sentyabrdagi 01-07/238-sonli guvohnomasi). Dissertatsiya materiallarida tadqiqotning badiiy mantlarda fransuz lisoniy birliklarning ekspressiv-stilistik jihatlari va badiiy usullarni o‘rganish xulosalari orqali yoshlarning kitobxonlik saviyasini va badiiy asarlarni o‘qish qobiliyatini oshirishga, ilg‘or chet el tilshunosi va jahon adabiyoti mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma’ruzalar ko‘rinishida 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Jahon adabiyotida fransuz tili va madaniyatining o‘rni”** deb nomlangan birinchi bobida fransuz klassik adabiyoti rivojlanishining asosiy bosqichlari tahlil qilingan, fransuz lisoniy madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, fransuz tili va adabiyotining ingliz va rus yozuvchilarning asarlarida aks etilishi tadqiq qilingan.

Badiiy asarda jamiyat, xususan, insonning estetik, emosional, ruhiy tajribasi aks etadi. Har bir badiiy asar yangi syujet va yangi obrazlardan iborat bo‘lib, unda yangi badiiy qadriyatlar yaratiladi<sup>5</sup>. Badiiy asarda jamoaviy, madaniy, ma’naviy hodisalar o‘z aksini topadi. Asarning syujetini ifodalash uchun asosiy element, ya’ni so‘z tanlovi katta rol o‘ynaydi. Badiiy matn mazmuni dialektik munosabatlar asosida yaratiladi: yozuvchi – asar – kitobxon. Badiiy matnning kitobxonga bo‘lgan ta’siri, birinchi navbatda, yozuvchi mahoratiga bog‘liq. Ammo, bu ta’sir kitobxon tasavvur qilish qobiliyati va uning hayot tajribasi, kognitiv bazasi bilan bevosita bog‘liqdir. Kitobxon badiiy asardagi fikrlar va g‘oyalarni aynan kognitiv qobiliyatlari orqali anglaydi.

Badiiy matn madaniyat bilan bevosita bog‘liq, zero unda tarixiy davr, milliy-madaniy hayot, udumlar va turmush tarzi tasvirlanadi. Badiiy asarda verbal vositalardan tashqari ko‘plab noverbal vositalar qo‘llaniladi. Ular ham muayyan xalqning turmush tarzi, milliy madaniyati, stereotiplari haqida ma’lumot yetkazadi, zero har bir lisoniy jamiyat o‘ziga xos milliy qadriyatlar va milliy madaniyatga ega.

Fransuz tili va madaniyati jahon adabiyotida o‘z aksini topadi, fransuz lisoniy birliklari esa, badiiy matnga o‘ziga xos yangi uslub va jarangdorlik qo‘shadi. Shu sababli, XVIII-XIX asrlarda ko‘plab jahon yozuvchilari fransuz tilidan foydalangan holda yozishni xush ko‘rardi. Fransuz birliklarini jahon adabiyotiga mansub matnlarda, ayniqsa klassik adabiyotida uchratish mumkin. Masalan, XVIII asr oxiridan boshlab, rus va ingliz badiiy matnlarida ko‘plab fransuz lisoniy birliklarning qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Jumladan, bir qator ingliz va rus yozuvchilari fransuz birliklarini badiiy asarlarga kiritgan. Ular orasida Dj.Golsuorsi, Dj.Ostin, O.Uayld, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, I.Turgenev va boshqalarni eslatish lozim.

O‘sha payt fransuz adabiyoti va madaniyati Rossiyaning til rivojiga ta’sir ko‘rsata boshlagan davr edi. Rus dvoryanlar jamiyatida ham fransuz tili va madaniyati juda tez tarqaldi. Bu, o‘z navbatida, Rossiyada XVIII-XIX asrlarda bilingvizm shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bilingvizmning boshqa sababi ikkala mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy, ilmiy-madaniy va siyosiy munosabatlarning rivoji sanaladi. Bilingvizm lisoniy hodisa bo‘lib, ko‘plab tilshunos, sosiolingvist va psixologlarning tadqiqot obyektiga aylangan. «Bilingvizm» atamasi turlicha talqin qilinadi: ba’zan u butun til jamiyati yoki mamlakatga, ba’zan esa, ikki va undan ko‘p tilni biladigan insonga nisbatan ishlatiladi»<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – Москва: МГУ, 1972. – С.48.

<sup>6</sup> Швейцер А.Д. Современная социоллингвистика. – Москва: URSS, 2018. – С.114.


Fransuzcha o‘zlashmalar rus tilida bajaradigan vazifalari asosida to‘rtta guruhga ajratiladi:

1. To‘liq fransuzcha o‘zlashmalar – rus matniga hech qanday o‘zgarishlarsiz kiritilgan fransuz iboralar va gaplar.

2. Qisman fransuzcha o‘zlashmalar – ruschada fonetik va morfologik assimilyasiyaga tushgan fransuzcha so‘z va iboralar.

3. Ruscha-fransuzcha kontaminatsiyaga tushgan o‘zlashmalar, rus tili qonuniyatlari asosida shakllangan fransuzcha o‘zlashmalari.

4. Neytral o‘zlashmalar, ya’ni rus matnga kiritilgan, ammo tarjimai bilan birgalikda berilgan fransuzcha o‘zlashmalar. Ularni quyidagi rasmda tasvirlash mumkin:



### 1-rasm. Fransuzcha o‘zlashmalar turlari

Ruscha-fransuzcha bilingvizmda quyidagi lingvistik xususiyatlar aniqlangan:

1. Fransuz nutqiy formulalari rus tiliga tarjima qilinganida ruscha muqobillar fransuzchaga mos keladi. Bu, o‘z navbatda, rus va fransuz tillari o‘rtasidagi leksik almashinuviga asos soldi.

2. Fransuzcha so‘zlar va iboralar rus tiliga ko‘proq kalka uslubi yordamida tarjima qilinar edi. Ba’zan ruscha leksemalar fransuzcha so‘zlarning so‘zma-so‘z tarjimasiga aylanardi.

3. Leksik kalkalashdan so‘ng frazeologik kalkalash ham yuzaga keldi.

4. Fransuz tili rus tilining sintaksis qoidalariga ta’sir o‘tkazgan.

5. Murakkab nutqda sintaksik buzilish va bo‘lishish kuzatilgan<sup>7</sup>.

Rus badiiy matnga fransuzcha birliklar turli usul yordamida kiritiladi:

<sup>7</sup> Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII-XIX веков. – Москва, 1934. – С.178-191.

1. Personajning replikalaridagi soʻz va soʻz birikmalari sifatida;
2. Matn shaklida: epigraf, maktub, hujjatlarda;
3. Rus transliteratsiyadagi fransuz leksikasi sifatida. Misol uchun, A.S. Pushkin “Евгений Онегин” sheʼriy romanida oxirgi bobda Tatyani fransuz iborasi bilan tasvirlaydi:

*Все тихо, просто было в ней,*

*Она казалась верный снимок*

*Du somme il faut... (благородства) (Шишков, прости:*

*Не знаю, как перевести.) [Пушкин, «Евгений Онегин», т.2: 320].*

Mazkur iboraning ruscha tarjimasini “yaqshidi” ega”. Bu ibora rus dvoryanlar jamiyatida keng tarqaldi va boshqa rus yozuvchilarning asarlarida ham tez-tez uchraydi. Misol uchun, L.N.Tolstoyning “Yunost” hikoyasida *somme il faut* iborasi aristokratik tarbiyani ifodalaydi. Yozuvchilar fransuz tilidan foydalanishdan maqsad – tasvirlanayotgan obyektlarga haqqoniy, adekvat shakl va maʼno berish boʻlgan.

Xorijiy oʻzlashmalar badiiy matnda evfemizm vazifasini ham bajaradi, yaʼni semantikasi kuchli yoki qoʻpol soʻzni “yumshatadi”. Bunday qoʻpol soʻzlar koʻpincha personajlarning replikasida uchraydi:

*... остаюсь в лестной компании лакеев, собиравших со стола. Испугавшись такого неожиданного превращения из уважаемого гостя в мелкую тварь, которую можно оставить без церемонии, entouré de canailles, я бросила всё и убежала [Дурова, «Записки кавалерист-девицы»: 135].* Mazkur parchada fransuzcha *canaille* soʻzi qoʻpol va negativ konnotatsiyaga ega. Bu soʻz rus tiliga “*ablah, iflos, aldoqchi*” maʼno bilan kirgan. Muallif rus tilidagi soʻzlarni ishlatmasdan, fransuzcha soʻzni ishlatgan. Bu soʻz ham evfemizm vazifasini bajaradi.

Fransuzcha soʻzlar turli kontekstda, jumladan, pardoz-andoz bilan bogʻliq gaplarda ham tez-tez ishlatiladi. Masalan, “*à la tire bouchon*” soʻzi jingalak sochlarni ifodalaydi, ammo bu tabiiy soch emas, u moslama yordamida oʻrnatiladigan zulf:

*Дочь князя, которую я знала еще, когда она носила волосы, завитые à la tire bouchon, и была очень милая черноглазая брюнеточка четырнадцати лет, теперь дама, мать многих детей, и как была, так и осталась: святое добродушие [Дурова, «Записки кавалерист-девицы»: 106].*

«Parvenu» soʻzi past tabaqadan chiqqan mahmadona insonni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu soʻz negativ konnotatsiyaga ega boʻlib, rus badiiy adabiyotida tez-tez uchraydi. N.A. Durova mazkur soʻz chuqurroq maʼnoni ifodalashi mumkinligini izohlab beradi, yaʼni bu soʻz nafaqat past tabaqadan chiqqan mahmadona, balki “yuqori tabaqa”ga kirib, oʻzining fikrini oldinga suradigan insonni ifodalaydi<sup>8</sup>. Rus tilida bunday insonni birgina soʻz bilan nomlash imkoniyati boʻlmaganligi uchun fransuzcha *parvenu* soʻzidan keng foydalanilar edi.

<sup>8</sup> Дурова Н.А. Записки кавалерист-девицы. Переиздание. – Казань: Татарское книжное издательство, 1979. – С.134.

Badiiy asardagi fransuzcha o‘zlashmalarni tarjimasiz tushunish uchun kitobxondan fransuz tilini mukammal bilish talab qilinadi<sup>9</sup>. Rus aristokratlari fransuzchani mukammal o‘rganib, fransuzcha talaffuzga katta e‘tibor berardi:

*Корсет носила очень узкий,*

*И по русский Н как N французский*

*Произносить умела в нос* [Пушкин, «Евгений Онегин», т.2: 220].

Ingliz tilida badiiy asarlarni o‘qishda ba‘zan fransuz tilini bilish talab qiladi. Misol uchun Djon Golsuorsining “The Forsyte Saga” romanini keltirish mumkin. Boshqa ingliz yozuvchisi Stiven Fray ham o‘z asarlarda ko‘plab fransuzcha so‘zlar va iboralardan foydalangan: *connaissanceur* – mutaxassis, ekspert; *à la mode* – zamonaviy, yaxshi kiyingan, modaga rioya qilgan, olifta, bashang; *adieux* – xayr!; *amateur* – havaskorlarga oid, havaskorlar ijrosidagi; *compère* – kompanon, dastur boshlovchisi; *beaucoup* – ko‘p va b.

Demak, ingliz va rus yozuvchilari fransuzcha leksikani matnga adekvat tasvir, noziklik va nafislik baxsh etish maqsadida ishlatgan.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va rus badiiy matnlarida qo‘llanilgan fransuz leksikasining struktur, semantik va pragmatik xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va rus badiiy matnlarida personajlarni tasvirlovchi fransuz birliklarning struktur-semantik jihatlari tahlil qilingan hamda ingliz va rus badiiy asarlaridagi fransuz birliklarining pragmatik xususiyatlari ochib berilgan.

Badiiy matn semantika, stilistika, ayniqsa pragmatika va kognitiv tilshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir lingvistik yo‘nalish kabi, kognitiv tilshunoslik obyekt til va lisoniy faoliyat hisoblanadi<sup>10</sup>. Badiiy matnda turli his-tuyg‘ular o‘z aksini topadi. Ular badiiy personajlar tomonidan ifodalanadi<sup>11</sup>.

Badiiy personaj portretini yaratish muallif uchun juda murakkab, chunki bir tomondan, tasvirlanayotgan personaj oddiy odam ko‘rinishiga bo‘lsa-da, boshqa tomondan, minglab badiiy obrazlar orasida o‘ziga xos jihatlari bilan kitobxon diqqatini tortishi lozim<sup>12</sup>. Bunda stilistik-ekspressiv vositalar katta ahamiyatni kasb etadi. Badiiy asarda har bir obraz o‘zgacha xarakterga ega. Mazkur xarakter bir nechta qismdan shakllanadi: uning portreti, nutqi, qilmishlari, harakatlari, boshqa personajlarga munosabatlari va, nihoyat, muallifning unga bo‘lgan bahosi. Dj.N. Frey fikriga ko‘ra, “personajlar asarni yaratuvchi materialdir; qiziqarli kitobni yozish uchun yorqin, kitobxon xotirasiga tushadigan personajlarni yaratish lozim»<sup>13</sup>.

Ingliz va rus badiiy asarlarida ko‘plab fransuzcha so‘zlar, iboralar va hattoki to‘liq gaplar qo‘llanilgan, ular muayyan obyekt yoki hodisaga real tasvir va o‘ziga xos lingvomadaniy, stilistik va pragmatik xususiyatlarni baxsh etadi:

<sup>9</sup> Найденкова Н.С. «Мировая литература» на французском языке как феномен трансграничной художественной словесности. // Известия РАН. Серия литературы и языка, 2013. – том 72. – № 1. – С. 52-57.

<sup>10</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – b.17-18.

<sup>11</sup> Комарова Л.И. Антропоцентризм художественного текста. // Вестник ТГУ, 2008. – Выпуск 8(64). – С. 101.

<sup>12</sup> Ashurova D. Text Linguistics. – Т.: Tafakkur qanoti, 2012. – P.43.

<sup>13</sup> Фрэй Д.Н. Как написать гениальный роман. – СПб.: Амфора, 2005. – С.46.

“*And how did Lady Brandon describe this wonderful young man?*” asked his companion. “*I know she goes in for giving a rapid precis of all her guests...*” [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 17]. Ingliz matnida birgina fransuz soʻzi qoʻllanilgan: *precis* – qisqacha tavsifnomani anglatadi. Ammo, tarjima matnida bu soʻz “taʼriflash” deb berilgan va soʻz ijobiy konnotatsiyaga ega boʻlgan:

*Bu barno yigit toʻgʻrisida ledi Brendon senga nima degan edi? – soʻradi lord Genri. – Men bilaman – uning har bir mehmonini oʻxshatib taʼriflash odati bor* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 15]. Asliyat matnida “*precis*” soʻzi mehmonlarni taʼriflash emas, ular haqida qisqacha maʼlumot berish maʼnosini ifodalaydi.

“*At Aunt Agatha’s. I have asked myself and Mr. Gray. He is her latest protégé*” [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 62]. *Protégé* – fransuzcha soʻz boʻlib, “himoyachi, homiy” degan maʼnoni anglatadi. Tarjimaga nazar solamiz:

*Agata xolamnikida. Men oʻzim iltimos qildim. Mister Greyning ham taklif qildim. Agata xola – mister Greyning yangi homiyi* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 55]. Koʻrib turganimizdek, “*protégé*” fransuzcha soʻzi oʻzbek iliga “homiy” deb tarjima qilingan va buni adekvat tarjima sifatida qabul qilish mumkin.

Jahon badiiy adabiyotida qoʻllanilgan fransuz leksikasi sanʼat, arxitektura, rassomchilik bilan bevosita bogʻliq. Quyidagi parcha buni isbotlaydi: *The carnations of the painting had withered, but the eyes were still wonderful in their depth and brilliancy of colour. They seemed to follow him wherever he went* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 246]. *Carnations* – yalangʻoch tanani namoyish etuvchi rassomchilik turi.

Tarjima variantida mazkur turning nomi saqlanmagan va uning oʻrnida “surat” soʻzi ishlatilgan:

*Suratda yuzining ranglari ancha ketib qolgan, lekin koʻzlari kishini lol qoldiradigan teranligini hamda ravshanligini saqlab qolgan. Dorianning nazarida, u qaysi tomonda turmasin, onasining nigohi undan uzilmas edi* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 218].

Jahonda fransuz kiyimlari oʻziga xos nafisligi bilan mashhur. Ular jahon adabiyotida oʻz aksini topadi:

“*She is still decolletée”, he answered, taking an olive in his long fingers; “and when she is in a very smart gown she looks like an édition de luxe of a bad French novel* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 303]. *Decolletée* – dekolte, ochiq ayollar koʻylagi. Mazkur gapda yana bir fransuzcha birikma mavjud: *édition de luxe* – sovgʻa uchun qimmatbaho nashr. Tarjimada “dekolte” fransuzcha kiyim uslubi oʻzbek tiliga asliyat shaklini saqlanmagan holda berilgan:

- *Bu ayol hozir ham koʻpchilik oʻrtasida ancho-muncha koʻkragi ochiq koʻylakda yuradi, - javob berdi lord Genri uzun barmoqlari bilan zaytunni olar ekan. – Yasan-tusanni oʻrniga qoʻygan paytlarida bu ayol juda chiroyli nashr qilingan bemaza fransuz romanlariga oʻxshaydi* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning

portreti”: 266]. Tarjima matnida “qimmatbaho nashr” o‘rnida “chiroyli nashr” so‘z birikmasi qo‘llanilgan.

Ba‘zan badiiy personajlar nutqida birgina fransuzcha so‘z chuqur ma‘noni anglatadi:

- *Ничего, все то же; я только пришел поговорить с тобой, Катюшь, о деле, - проговорил князь, устало садясь в кресло, с которого она встала. – Как ты нагрела, однако, - сказал он, - ну, садись сюда, causons [Толстой, «Война и мир», т.1: 66-67]. Mazkur so‘zning tarjimasi: “gaplashamiz, gap bor”.*

Rus badiiy matnlarida personajlarning nutqida qo‘shma gaplar uchraydi:

- *Ma bonne amie, je crains que le fruschtique (comme dit Фока повар) de ce matin ne t’aie pas fait du mal.*

- *А что с тобой, моя душа? Ты бледна. Ах, ты очень бледна, - испуганно сказала княжна Марья, своими тяжелыми мягкими шагами подбегая к невестке [Толстой, «Война и мир», т.2: 27]. Kontekstdagi fransuzcha gap “*aziz do‘stim, umid qilamanki, hozirgi frishtikdan (unga oshpaz Foka shunday nom bergan) mazam qochmaydi*” ma‘nosini ifodalaydi. Mazkur fransuzcha gap rus tilida ochiq aytib bo‘lmaydigan ma‘lumotni yetkazadi.*

Rus yozuvchilarning badiiy asarlarida turli shakldagi fransuzcha gaplar ishlatilgan, buyruq gaplar ham bundan mustasno emas:

- *И в самом деле, - подхватила княжна Марья, - может быть, точно. Я пойду. Courage, mon ange! – Она поцеловала Лизу и хотела выйти из комнаты [Толстой, «Война и мир», т.2: 28]. Mazkur buyruq gap o‘zbekchaga “qo‘rqma, farishtam” deb tarjima qilinadi.*

So‘roq gap shakliga misol keltiramiz:

- *Connaissez vous le proverbe? «Ерема, Ерема, сидел бы ты дома, точил бы свои веретёна» - сказал Шиншин, морщась и улыбаясь [Толстой, «Война и мир», т.1: 59]. Bu misolda “Siz ... taqolni bilasizmi?” degan savol berilgan.*

Keyingi kontekstda fransuzcha gap inkor shaklida qo‘llaniladi:

- *Это ваша ваша protégée, ваша милая Анна Михайловна, которую я не желала бы иметь горничной, эту мерзкую, гадкую женщину.*

- *Ne perdons point de temps.*

- *Ах, не говорите! [Толстой, «Война и мир», т.1: 70]*

Inkor gapning ma‘nosi: “*Vaqtini yo‘qotmaylik*”.

Ruscha romanlarda badiiy personajlar nutqida fransuzcha undovlar tez-tez ishlatilgan. Ular personajlarning emosional holatini tasvirlab beradi:

- *Oh! Mon dieu! Mon dieu! – слышала она сзади себя. Потирая полные небольшие белые руки, ей навстречу, с значительно-спокойным лицом, уже ушла акушерка [Толстой, «Война и мир», т.2: 28]. Mazkur undovning tarjimasi: *Voу, Xudoim! Xudoim!**

Badiiy asarlarda uchraydigan fransuzcha murojaatlarning aksariyati “egalik olmoshi (yoki sifat) + ot” modeli asosida yaratilgan:

- *Бог знает, chère amie! Эти богачи и вельможи такие эгоисты [Толстой, «Война и мир», т.1: 44].*

Tarjimada mazkur birikma bir so‘z bilan ifodalangan, chunki fransuz tili

analitik, o‘zbek tili esa sintetik tildir:

*Xudo biladi, do‘stim! Bu boylar, to‘ralar shunaqa ham xudbinki* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 76].

Rus dvoryanlari odatda siyosat haqidagi mulohazalarni fransuz tilida bayon etar edi. Navbatdagi parchada fransuz tilida aytilgan siyosiy fikrlar turli gaplar shaklida faollashadi: buyruq inkor gap, so‘roq gap va tasdiq gap:

- *Ne me tourmentez pas. Eh bien, qu’a-t-on décidé par rapport à la Dépêche de Novosilzoff? Vous savez tout.*

- *Как вам сказать? – сказал князь холодным, скучающим тоном. – Qu’a-t-on décidé? On a décidé que Bonaparte a brûlé ses vaisseaux, et je crois que nous sommes en train de brûler les nôtres* [Толстой, «Война и мир», т.1: 4].

Tarjimon yuqoridagi kontekstdagi barcha gap shakllarini saqlab qolib, uni adekvat tarjima qilgan:

*Meni qiynamang. Xo‘sh, Novosilsovning maktubi haqida nima qarorga kelishdi? Siz xamma voqeadan xabardorsiz.*

*Nima desam ekan? – dedi knyaz beparvo, zerikkan ohangda. Nima qarorga kelishar edi? Bonapart o‘z kemalariga o‘t qo‘yibdi, biz ham o‘z kemalarimizga o‘t qo‘yishga tayyorga o‘xshab qoldik, degan qarorga kelishdi* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 6].

Ko‘rinib turibdiki, tarjimon turli lisoniy madaniyatdan xabardor bo‘lishi, ya’ni fon bilimlari keng bo‘lishi zarur. Amerikalik tilshunos Yudjin Nayda o‘z monografiyasida yozadi: «Yozuvchi asarida eng chiroyli manzaralarni tasvirlaydi, ummo ularning go‘zalligini boshqa tilda aks etish tarjimon qo‘lidadir»<sup>14</sup>. Badiiy asarni tarjima qilishda asosiy pragmatik maqsadni saqlash lozim<sup>15</sup>.

Badiiy matn boy pragmatik mazmunga ega bo‘lib, inson hissiyotlari va ichki kechinmalarini ifodalaydi:

*As he turned over the pages his eye fell on the poem about the hand of Lacenaire, the cold yellow hand du supplice encore mal lavée, with its downy red hairs and its doigts de faune* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 279]. *Lacenaire* – Pyer-Fransua Lasener (1800-1836), fransuz jinoyatchisi, o‘g‘ri va qotil, sud hukmi bilan qatl etildi. *Du supplice encore mal lavée* ma’nosi: “hali g‘am-tashvishi ketmagan”, *doigts de faune* ma’nosi: “favn barmoqlari”.

Tarjimon bu parchani quyidagicha tarjima qilgan:

*Uni varaqlarkan, Dorian Lasnerning qo‘li haqidagi dostonga nigohini qaratdi. “Bu malla sovuq qo‘llardan yuvilgan yo‘q jinoyat izi, barmoqlari favnnikiday, qoplab olgan mallarang tuklar...”* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 246]. Ko‘rib turibmizki, *du supplice encore mal lavée* (hali g‘am-tashvishi ketmagan) birikmasi “yuvilgan yo‘q jinoyat izi” deb o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan. Mazkur romanda quyidagi ma’nolarni ifodalovchi fransuz lisoniy birliklarning statistik ma’lumotlarni javdalda keltiramiz:

<sup>14</sup> Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. – United Bible Society, 1969. – P.115.

<sup>15</sup> Абдувахабова У.М. Прагма-стилистические средства описания человеческих ценностей в оригинале и переводах произведений Герберта Э.Бейтса: Дисс. ... доктора философии по филол.наукам (PhD). – Самарканд: СамГИИЯ, 2023. – С.19.

**Oskar Uayldning “Dorian Greyning portreti” asarida qo‘llanilgan fransuz  
lisoniy birliklarining semantik va statistik tahlili**

Fransuz lisoniy birliklarning ma’nosi	Soni
Gazeta nomlari	15
Toponimlar	17
Antroponimlar	39
Taomlar, ichimliklar va dessert nomlari	23
Hulq-atvor	4
Sport va madaniy hordiq	7
To‘y marosimi	9
Dafn etish marosimi	7
Diniy bayramlar va marosimlar	6
Rang timsollari	13
Xizmat turlari	3
Inter’yer va mebel	19
Arxitektura va san’at	25
Xushbo‘y o‘simliklar va gullar	11
Adabiyot va fan	14

Fransuzcha “*tete-a-tete*” so‘zi “yuzma-yuz, o‘zimiz o‘rtamizda” kabi ma’noni ifodalaydi:

*Yet time and her aunt moved slowly – and her patience and her ideas were nearly worn out before the tête-à-tête was over* [Austin, “Pride & Prejudice”: 266]. O‘zbek versiyasida mazkur so‘z “yuzma-yuz” deb tarjima qilingan:

*Lekin vaqt va missis Gardiner shunday sekin harakat qilishayotgandiki, bunday yuzma-yuz qolishganining oxiriga borib nima to‘g‘risida gapirishni ham bilmay qolishdi* [Ostin, “Andisha va g‘urur”: 225].

Demak, axborotni qabul qiluvchining pragmatik munosabati bir qator omillarga bog‘liq: intellekt darajasi, yoshi, kasbi va h.k. Har bir matn ma’lum bir axborotni yetkazadi, shu bois mazkur axborotni idrok etish o‘ziga xos pragmatik munosabatlarni shakllantiradi. Matn pragmatik ta’sirga ega, chunki u kitobxonda yoki tinglovchida his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Tarjimon nafaqat matnning mazmuni, balki adresatga mo‘ljallangan kommunikativ ta’sirni ham yetkazishi zarur. Bu jarayonda tarjimon matnning pragmatik mazmunini qayta yaratish maqsadida ba’zan matnga o‘zgarishlar kiritadi, ya’ni o‘zining umumiy lingvomadaniy va pragmatik bilimlariga asoslangan holda, matndagi tagma’nolarni ham kitobxonga yetkazadi. Pragmatik ekvivalentlikka erishishda matndagi so‘zlarning semantik ma’nosi, ularning qo‘llanilishi, stilistik-sintaksik munosabati katta rol o‘ynaydi.

Rus yozuvchilari romanlarida qo‘llanilgan fransuzcha so‘zlar turli pragmatik vazifalarni bajaradi. Rus aristokratlar jamoasida do‘stlar va dugonalar ham bir-biriga fransuzcha murojaat qilishardi. Do‘st va dugonalar aynan dvoryan jamiyatdan bo‘lgani uchun, fransuz tilida bemaol gaplashardi. Fransuzcha murojaat o‘zgacha hurmat izhor qilish bilan birgalikda, nutqqa oro qo‘shardi hamda atrofda odamlarning e’tiborini tortardi. Masalan, quyidagi parchada personaj do‘stiga mo‘ljallangan maslahatini fransuz tilida ifodalamoqda:

- *Ah mon ami!* – *сказала она с тем же жестом, как утром с сыном,*

*допрагиваясь до его руки, - croyez, que je souffre, autant que vous, mais soyez homme. Soyez homme, mon ami, c'est moi qui veillerai à vos intérêts, - сказала она в ответ на его взгляд и еще скорее пошла по коридору* [Толстой, «Война и мир», т.1: 71-72]. Maslahatning ma'nosi: “*Do'stim, ishoning, men ham qiynalyapman, ammo siz o'zingizni erkaklarcha tutishingiz kerak. Siz erkak bo'lishingiz kerak, men esa manfaatlaringizni qo'llab-quvvatlayman*”. Mazkur kontekstda personajning o'z nutqini fransuzcha bayon etgani katta ahamiyatga ega. Birinchidan, bu personaj bilan do'sti o'rtasidagi sir ekanligi, ikkinchidan, ularning o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligini namoyish etadi.

Navbatdagi parchada va'da berganligini eslatish kabi pragmatik ma'no fransuzcha ifodalangan:

*Mon cher, vous m'avez promis, - обратилась она опять к сыну, прикосновением руки возбуждая его* [Толстой, «Война и мир», т.1: 46].

O'zbek tilidagi matn:

*U yana qo'l tekkizishi bilan o'g'lining g'ashiga tegib:*

*Do'stim, menga so'z bergansan, - dedi* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 78]. Asliyat matnida ona o'g'liga “siz” deb murojaat qiladi, tarjimada “bergansan” so'zi ishlatilgan. Ko'rib turibmizki, asliyat matnidagi strukturaga tarjimada o'zgarishlar kiritilgan, ya'ni avval onaning harakati tasvirlangan, undan keyin esa, nutqi. Xulosa sifatida, ingliz va rus badiiy matnlarda qo'llanilgan fransuz lisoniy birliklarining pragmatik vazifalarining faollashuviga oid ma'lumotlarni taqdim etamiz:

## 2-jadval

### Ingliz va rus badiiy matnlarda fransuz lisoniy birliklarining pragmatik vazifalari

Pragmatik vazifa	Ingliz matnlarda	Rus matnlarda
Salomlashish va murojaat qilish	-	+
Xushmuomalalik ko'rsatish	-	+
Tabriklash	-	+
Norozilik bildirish	+	+
Urushish, tanbeh berish	+	+
Ijobiy fikr bildirish	-	+
Salbiy fikr bildirish	+	+
Iltimos qilish	-	+
Kinoya ifodalash	+	+
Noqulay vaziyatni yoki ma'noni yumshatish	-	+
Savol berish	+	+
Ogohlantirish	+	+
Istak bildirish	-	+
Tanqid qilish	+	+
Maslahat berish	-	+

Qiyoslanayotgan tillarda yozilgan badiiy matnlarda ishlatilgan fransuz birliklari fransuz tarixi, jugʻrofiyasi, siyosati, adabiyoti, kiyinish usullari, pardozi uskunlari, taomlar nomi, interyer va uy jihozlari, gazeta nomlari, oʻsimliklar nomi, madaniy xordiq va udumlarni tasvirlaydi. Ular tarjimon uchun qiyinchiliklar yaratadi. Ingliz va rus asarlarining oʻzbek tiliga tarjima qilingan variantlarini qiyoslaganda, koʻplab nomutanosibliklar aniqlandi va matnga tarjimon tomonidan oʻzgarishlar kiritilganligi maʼlum boʻldi. Baʼzan fransuz leksikasi tarjima matnida ham fransuzcha berilgan, aksariyat misollarga izoh berilgan, baʼzilari shunchaki izohsiz taqdim etilgan. Tarjima matni kitobxonlarda oʻzgacha kommunikativ va pragmatik taʼsir qilishi mumkin va bunday farq turli madaniyat, dunyoqarash va shaxsiy fazilatlar bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va rus badiiy matnlarida fransuz birliklarining ekspressiv-stilistik va lingvomadaniy mazmuni”** deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va rus badiiy asarlarda qoʻllanilgan fransuz leksikasining stilistik jihatlari aniqlangan, ingliz va rus badiiy matnlarda fransuzcha iboralar va maqollarning qoʻllanilishi oʻrganilgan hamda badiiy asarlarda fransuz tilida taqdim etilgan antroponimlar tahlili keltirilgan.

Stilistika badiiy matnda va nutq aktida qoʻllaniladigan uslubiy vositalarini tadqiq qiluvchi tilshunoslikning bir aspekti hisoblanadi. G.G. Molchanova taʼkidlashicha, stilistika maydoni oddiy stilistik vositalaridan ancha keng tarqaladi va inson ongidagi turli kognitiv jarayonlariga asoslanadi. Stilistika inson fikrlarining verbal shakllarini oʻrganadi<sup>16</sup>. Stilistik vosita til birliklarining semantik va struktur maʼnosini kuchaytirish maqsadida qoʻllaniladi. Turli sintaktik va stilistik vositalar nutqga ekspressiv va hissiy maʼno qoʻshadi<sup>17</sup>.

Badiiy matndagi stilistik vositalar kitobxonning diqqatini tortish va qiziqishlarini kuchaytirish vazifasini bajaradi. Stilistik vositalarning faollashuvi kitobxon assosiativ idrok va tasavvuriga bogʻliq. Matn ekspressivligini taʼminlashda epitet, metafora, metonimiya, mubolagʻa, litota, allegoriya, kinoya kabi samarali stilistik vositalar qoʻllaniladi. Ular odatda soʻz yoki soʻz birikmasi shaklida ifodalanib, koʻchma maʼnoni yaratadi, shuningdek, turli obrazlar, atrofdagi olam, tabiatni tasvirlashida keng qoʻllaniladi. Bundan tashqari, sintaksik vositalar ham katta ahamiyatga ega: anafora, antiteza, gradatsiya, inversiya, parallelizm, ritorik savollar, ellipsis.

Badiiy kontekstda fransuzcha soʻzlar va gaplar evfemizm vazifasini ham bajaradi, yaʼni aytish noqulay boʻlgan soʻzlar va gaplar oʻrnida ishlatiladi. Masalan, quyidagi parchada “Men sizni sevaman” oʻrnida fransuzcha “Je vous aime” ishlatilgan. Sevgini fransuzcha izhor qilish mayin va xushohang chiqadi:

*- Но в чем же я виноват? – спрашивал он. – В том, что ты женился, не любя ее, в том, что ты обманул и себя и ее, - и ему живо представилась та минута после ужина у князя Василия, когда он сказал эти не выходявшие из*

<sup>16</sup> Молчанова Г.Г. Холистика текста (на основе триады: система – языковая личность – текст) // Языки в современном мире. – том 2. – Москва, 2004. – С. 65.

<sup>17</sup> Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – Москва: Либроком, 2014. – С.231.

него слова: «*Je vous aime*» Все от этого? [Толстой, «Война и мир», т.2: 22].

Stilistik nuqtai nazardan fransuzcha leksika katta ahamiyatga ega. Masalan, keyingi kontekstda fransuzcha gap qo‘pol so‘z birikmaning o‘rniga ishlatilgan. Fransuzcha gapning ma‘nosi: “yo‘qol, qorangni o‘chir!”, ammo rus kontekstda bunday qo‘pol ma‘no “yopilmoqda”:

*Потом он вспомнил ясность и грубость мыслей и вульгарность выражений, свойственных ей, несмотря на ее воспитание в высшем аристократическом кругу. «Я не какая-нибудь дура... поди сам попробуй... allez vous promener», - говорила она* [Толстой, «Война и мир», т.2: 22]. Kontekstda ishlatilgan “грубость”, “вульгарность”, “дура” kabi so‘zlar kitobxonni fransuzcha iboraning ma‘nosiga tayyorlamoqda. Mazkur so‘zlar semantik intensivator emas, balki salbiy ma‘noni yumshatish vazifani bajarimoqda.

Fransuz leksikasining evfemizm vazifasini bajarishini quyidagi parchada kuzatish mumkin:

*Все-таки я не понял, de quoi vous avez peur, - медлительно проговорил князь Андрей, не спуская глаз с жены* [Толстой, «Война и мир», т.1: 25]. Fransuzcha jumlaning tarjimasi: “nimadan qo‘rqayotganingni”.

Keyingi parchada qo‘llanilgan fransuzcha turg‘un birikmalar evfemizm vazifasini bajarimoqda:

*“Fin de siècle”, murmured Lord Henry.*

*“Fin du globe”, answered his hostess.*

*“I wish it were fin du globe”, said Dorian with a sigh. “Life is disappointment”* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 306]. *Fin de siècle* ma‘nosi: asr tugashi. *Fin du globe* ma‘nosi: oxirzamon.

Quyidagi parchada takrorlash stilistik vositasi kitobxon e‘tiborini aytilayotgan fikrga jalb qilish maqsadida qo‘llanilgan:

*Княгиня покраснела и отчаянно и взмахнула руками. - Non, André, je dis que vous avez tellement, tellement changé...* [Толстой, «Война и мир», т.1: 25]. – “Yo‘q, Andre, sen judayam o‘zgarding, judayam o‘zgarding”.

Navbatdagi misolda fransuz so‘zi juda kuchli salbiy ma‘noni qoliplash vazifasini bajarimoqda:

*Что же мне делать? – сказал он наконец. – Вы знаете, я сделал для их воспитания всё, что может отец, и оба вышли des imbéciles. Инполит по крайней мере покойный дурак, а Анатолий – беспокойный* [Толстой, «Война и мир», т.1: 6].

Tarjimon “imbéciles” (tentak) so‘zidagi kuchli salbiy konnotatsiyani o‘zbek tilida ancha yumshatib bermoqda:

*Quandoq qilay endi? – dedi knyaz nihoyat. – Bilasizmi, men bularning tarbiyasi uchun bir otaning qo‘lidan keladigan hamma narsani qildim, lekin ikkovi ham bema‘ni chiqishdi* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 10].

Keyingi parchada antiteza stilistik vositasi faollashadi:

*Aucun, - возразил виконт. – После убийства герцога даже самые пристрастные люди перестали видеть в нем героя. Si même ça a été un héros pour certaines gens, - сказал виконт, обращаясь к Анне Павловне, - depuis l'assassinat du duc il y a un martyr de plus dans le ciel, un héros de moins sur la terre* [Толстой, «Война и мир», т.1: 18].

Tarjima matnida ham antiteza “qahramon” va “shahid”, “ko‘kda” va “yerda” so‘zlari asosida saqlangan:

*Hech qanchalik haqi yo‘q, - dedi vikont. – Gersogni o‘ldirganidan keyin eng ixlosmand odamlari ham unga qahramon deb qaramaydigan bo‘lishgan. Agar u ba‘zi birovlar uchun qahramon bo‘lsa, - dedi vikont Anna Pavlovnaga qarab, - gersogni o‘ldirganidan keyin ko‘kda bir shahid ortdi-yu, yerda bir qahramon kamaydi* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar : 27].

Fransuzcha iboralar badiiy matnlarda ham tez-tez qo‘llaniladi:

- *Mais, ma pauvre Catiche, c’est claire comme le jour. Он один тогда законный наследник всего, а вы не получите ни вот этого* [Толстой, «Война и мир», т.1: 68]. Iboralar “bu kundek ravshanku” ma’noni ifodalaydi.

Keyingi parchada inson ruhi va hissiyotlari fransuzcha iboralar yordamida gavlantiriladi:

*“Four husbands!” Upon my word that is trop de zélé”.*

*“Trop d’audace, I tell her”, said Dorian* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 304]. *Trop de zélé* – juda katta shijoat. *Trop d’audace* – juda katta jасorat.

Yana bir qiziqarli iborani tahlil qilamiz:

*Ah! chère, - говорила графиня, - и в моей жизни tout n’est pas rose. Разве я не вижу, что du train que nous allons, нашего состояния нам ненадолго* [Толстой, «Война и мир», т.1: 43].

Keltirilgan turg‘un birikmalar adekvat tarzda o‘zbek tiliga o‘girilgan:

*Ah! Chère, - dedi grafinya, - mening hayotimning ham hammasi gul emas. Nainki men shu xilda hayot kechirganimizda boyligimiz uzoqqa yetmasligini bilmasam!* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 74].

Oksyumoron ham stilistik vositaning biri bo‘lib, ikkita qarama-qarshi ma’noga ega so‘zlarning birikmasi shaklida keladi:

*... tell of that curious statue that Gautier compares to a contralto voice, the “monster charmant” that couches in the porphyry-room of the Louvre* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 282]. Mazkur gapda oksyumoron: *monster charmant* – maftunkor maxluq. Parchaning tarjimasini:

*Bu g‘aroyib haykal madh etilgan misralarda o‘pilaverib yanada silliq qilib yuborilgan marmar bag‘riga yashiringan musiqa sadolari chiqarib olingan. Gotye uni kontralto ovozigacha taqqoslaydi va ajib bir g‘aroyibot deb ataydi* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 248]. Ko‘rib turibmizki, tarjimada oksyumoron “maftunkor maxluq” umuman mavjud emas, atoqli ot “Luvr” ham o‘zbek matnida keltirilmagan. Ingliz va rus badiiy matnlarda qo‘llanilgan fransuz lisoniy birliklari–ning stilistik vazifalarining faollashuviga oid ma’lumotlarni taqdim etamiz:

## Ingliz va rus badiiy matnlarda fransuz lisoniy birliklarining stilistik vazifalari

Stilistik vosita	Ingliz matnlarda	Rus matnlarda
Evfemizm	+	+
Kinoya	+	+
Metafora	+	+
Ekspressiya va undovlar	+	+
Takrorlash	+	-
Giperbola	-	+
O'xshatish	+	+
Antiteza	-	+
Inversiya	+	-
Parallelizm	+	-

Badiiy matnda tanbeh, ta'na berish maqsadida fransuz iboralari va fransuz tilida aytilgan gaplar tez-tez qo'llanilgan:

*На другой день приехал князь Василий и поместился в доме графа. Он призвал к себе Пьера и сказал ему:*

*- Mon cher, si vous vous conduisez ici, comme à Pétersbourg, vous finirez très mal; c'est tout ce que je vous dis. Граф очень, очень болен: тебе совсем не надо его видеть* [Толстой, «Война и мир», т.1: 49]. Tanbehning ma'nosi quyidagicha: “Aziz do'stim, agar bu yerda ham o'zingizni Peterburgda tutganingizdek tutsangiz, oxiri yomon bo'ladi”. Ta'nada ifodalangan ma'no kuchli va negativ konnotatsiyaga ega. Bunday salbiy bahoni yumshatish uchun tanbeh fransuzcha aytilgan.

Inson hayoti davomida tajriba va atrofdagi olamga nisbatan aniq baho beradi. Bunday munosabatlar va baholar yillar davomida avloddan avlodga paremiologik birliklar, ya'ni maqollar strukturasi yetkaziladi<sup>18</sup>. Maqollar aniq bir obyekt muayyan vaqt va manzilda aniq bir vaziyatga tushib qolganini tasvirlaydi va unga nisbatan maslahat, baho, rozilik va hk. bildiradi<sup>19</sup>. Maqollar xalq donoligining xazinasi, ko'p asrli tarixga tayangan ma'naviy boylik va madaniyatdir<sup>20</sup>. Badiiy asarlarda keltirilgan maqollar odatda kuchli semantik ma'noga ega bo'lishadi:

*Mon prince, «errare humanum est», mais... - отвечал доктор, грацируя и производя латинские слова французским выговором* [Толстой, «Война и мир», т.1: 46].

Tarjima adekvatlikka erishilgan:

*Князь, odam bolasi degan yanglishmay iloji yo'q... – deb javob berdi doktor, lotin so'zlarini fransuzcha talaffuz bilan aytib* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 79].

Keyingi ingliz kontekstida ishlatilgan fransuzcha paremiologik birlik, ya'ni

<sup>18</sup> Маджидова Р.У. Антропоцентрические пословицы: семантика и лингвостатистика (на материале узбекского и русского языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2008. – С.14.

<sup>19</sup> Бурмистрова Л.В. Структурные, семантические и прагматические характеристики комических пословиц: Дисс. ...канд. филол. наук. – Астрахань, 2017. – С.58.

<sup>20</sup> Бакиров П.У. Концепт и пословицы // Филология ва маданиятлараро коммуникация: долзарб масалалар ва истикболлар. – Тошкент, 2018. – С. 98.

maqol o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatga ega va aynan fransuz jamiyatiga xos ma'noni ochib beradi:

“... *The longer I live, Dorian, the more keenly I feel that whatever was good enough for our fathers is not good enough for us. In art, as in politics, les grand-pères ont toujours tort*” [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 87]. *Les grand-pères ont toujours tort* – bobolar hamisha nohaq. O'zbek tilida mazkur maqolning ekvivalenti bo'lmagani uchun tarjimon uni fransuz tilidagi shaklida taqdim etgan va so'zma-so'z tarjimasini bergan:

“... *Men dunyoda yashaganim sari, Dorian, ishni ravshanroq ko'rmoqdamanki, bobolarimizga manzur bo'lgan narsalar ortiq bizni qoniqtirmay qo'ygan. San'atda ham, xuddi siyosatda kabi les grand-pères ont toujours tort*” (bobolar hamisha nohaq) [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 78].

Keyingi kontekstda yana bir qiziqarli maqol faollashadi:

*J'espère enfin, - продолжала Анна Павловна, - que ça a été la goutte d'eau qui fera déborder le verre. Les souverains ne peuvent plus supporter cet homme qui menace tout* [Толстой, «Война и мир», т.1: 17].

Tarjimada ham ekvivalent maqol taqdim etilgan:

*Shoyad bu voqea, - dedi Anna Pavlovna so'zida davom etib, - sabr kosasini to'ldirib-toshiradigan so'nggi bir tomchi bo'lsa. Borliqqa xavf solayotgan bu odamning qilmishlariga podshohlar bundan keyin bardosh qilmasalar* [Tolstoy, “Urush va tinchlik”, I, II kitoblar: 28].

Badiiy matndagi o'zlashgan leksika orasida ko'plab atoqli otlar mavjud:

*So the lad was looking rather sulky, as with listless fingers he turned over the pages of an elaborately-illustrated edition of Manon Lescaut that he had found in one of the bookcases* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 79]. *Manon Lescaut* – “Manon Lesko”, Antuan Fransua Prevo ismli fransuz yozuvchi abbatning romani. Tarjimada mazkur ism o'z shaklida beriladi, ammo unga hech qanday ta'rif berilmagan. Kitobxon “Manon Lesko” nomli asarni o'qimagan bo'lsa-da, kontekstdan uning kitob ekanligini tushunishi oson, bunga “varaqlab o'tiribdi”, “bu kitobga”, “kitob javonlarining biridan” kabi so'z birikmalar yordam beradi:

*U hamma joyga kechikib borishni o'ziga odat qilib olgan edi. Dorian ranjigan bir ahvolda qovog'ini uyib, parishonxotirlik bilan “Manon Lesko”ni varaqlab o'tiribdi. Bu kitobga juda chiroyli rasmlar ishlangan bo'lib, Dorian uni kitob javonlarining biridan topib oldi* [Oskar Uayld, “Dorian Greyning portreti”: 69].

Antroponimlar tarixiy shaxslar va muayyan tarixiy davr bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

*The formal monotonous ticking of the Louis Quartorze clock annoyed him. Once or twice he thought of going away* [Oscar Wilde, “The Picture of Dorian Gray”: 79]. *Louis Quartorze clock* – qirol Lyudovik XIV (1638-1715) davrdagi soat.

Badiiy asarlarda toponimlar muhim rol o'ynaydi, chunki ular syujetda tasvirlangan mamlakat, shahar yoki muayyan joylarning nomlarini bayon qilib, real manzaralarni gavlantiradi:

*After a few years he could not endure to be long out of England, and gave up the villa that he had shared at Trouville with Lord Henry, as well as the little white walled-in house at Algiers where they had more than once spent the winter* [Oscar Wilde, "The Picture of Dorian Gray": 239]. *Trouville* – Fransiyadagi kurort shahar. Odatda toponimlar tarjimada o‘z nomini saqlab qoladi.

Demak, badiiy matnda qo‘llanilgan atoqli otlarning aksariyatini antroponim va toponim so‘zlari tashkil qiladi. Antroponimlar monarx nomlari, olimlar, yozuvchi va tarixiy shaxslarning nomlarini ifodalab, badiiy matnga reallikni qo‘shadi, tarix, madaniyat, ilm-fan haqida muhim ma‘lumotlarni yetkazadi. Toponimlar syujetdagi hodisalarning aniq joylarini tasvirlab, kitobxonda jug‘rofiy bilimlar bazasini boyitadi.

## XULOSA

1. Frankofon adabiyoti ilk bor Kvebek koloniyalarda shakllandi. Frankofon adabiyoti Fransiyada yashamagan va fransuz millatiga mansub bo‘lmagan, ammo fransuz tilida yozadigan so‘z ustalarning ijodi bo‘lib, u fransuz madaniyatini qay darajada aks ettirishi bo‘yicha adabiyotshunoslarning ko‘plab savollari va tanqidiy maqolalariga sabab bo‘lgan. XIX asrning oxirida va XX asrning boshida frankofon adabiyoti Afrika, Belgiya va Kanada mamlakatlarida rivojlandi.

2. Madaniyat bilim, o‘doh-axloq, ilm-ma‘rifat, adabiyot, san‘at, iymon-e‘tiqod, milliy mentalitet, turmush tarzi, an‘ana, bayram, udumlar va odatlar majmuidir. Badiiy asarlarda fransuz madaniyati turli obyektlar tasviri vositasida aks etadi: gazeta nomlari, sport turlari va madaniy hordiq, taomlar va ichimliklar nomi, to‘y marosimi, dafn marosimi, diniy marosimlar, xulq modellari (fransuzcha ketish), rang ramzlari, xizmat turlari (garson), inter‘yer va mebel, xushbo‘y o‘simliklar va gullar nomi, parfyumeriya nomlari, badiiy asarlar nomi, monarxlar, olimlar, yozuvchilar, faylasuflar va boshqa tarixiy shaxslar nomi. Fransuz madaniyati Qirol Lyudovik XIV davrida butun dunyoga tarqaldi.

3. Ishda tadqiq qilingan fransuz birliklari badiiy kontekstlarda eksplitsit va implitsit holda uchraydi, ammo odatda ular implitsit (tagma‘no) kontekst yaratishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan fransuzcha o‘zlashmalarning to‘rtta turi aniqlandi: 1) to‘liq fransuzcha o‘zlashmalar (o‘zgarishsiz qabul qilinadi); 2) qisman fransuzcha o‘zlashmalar (fonetik va morfologik o‘zgarishlarga duch keladi, assimilyatsiyaga uchraydi); 3) boshqa til leksemasi + fransuz so‘zi, ya‘ni kontaminatsiya hodisasi; 4) neytral o‘zlashmalar – tarjimasi beriladi.

4. Badiiy matnlarda qo‘llanilgan fransuz tili birliklari kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiq qilingan va ular turli mental jarayonlar, his-tuyg‘ular, tasavvurlar, konsept, skript yoki senariy, mental manzaraning aks etishini ta‘minlaydi. Fransuz leksemalari badiiy personajning tashqi ko‘rinishi, millati, ijtimoiy mavqeyi, kiyinish uslubi, xulq-atvori, xarakteri, emotsional holati va ichki dunyosini yorqin va ekspressiv tarzda tasvirlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, fransuz birliklari hayot, ozodlik, baxt, tinchlik, adolat, muhabbat va do‘stlik kabi umuminsoniy hamda ota-onaga, farzandlarga, din-e‘tiqodga bo‘lgan

munosabat kabi shaxsiy qadriyatlarni tasvirlash maqsadida badiiy matnlarda keng foydalanilgan.

5. Ingliz va rus badiiy matnlarida qo‘llanilgan fransuz birliklari bir so‘z, so‘z birikmasi, ibora, maqol, gap va hatto (intertekstual) matn shaklida uchraydi. Asarlarda qo‘llanilgan fransuz leksikasi asliyat va o‘zbek tiliga tarjima qilingan variantida semantik va struktur nuqtayi nazardan nomutanosiblik ko‘pligi aniqlandi. O‘zbek kitobxonlariga tushunarli bo‘lishi uchun tarjima matnida gap stukturalari asliyatdan ko‘ra kengaytirilgan. Ko‘plab fransuzcha so‘zlar so‘zmaso‘z tarjima qilingan, boshqacha aytganda, fransuzcha so‘zlarning ko‘chma ma‘nosi e‘tiborga olinmagan, shuning uchun ba‘zi kontekstlarda bunday usul kutilgan samarani ta‘minlamagan (masalan: *précis* – “ta‘riflash” deb, *protégé* – “homiy” deb, *turquoise de la vieille* – “ko‘hna feruza” deb, *entrées* – “ilmiliq ovqat” deb tarjima qilingan). Fransuz birliklari badiiy matnda quyidagi modellarda tez-tez uchraydi: 1) predlog + olmosh (*entre nous*); 2) egalik olmoshi (yoki sifat) + ot (*mon père, chère amie*); 3) konstruktsiya “il y a ...” (*il y a un temps pour tout*).

6. Ingliz va rus badiiy asarlarda qo‘llanilgan fransuz birliklarini adekvat tarjima qilish uchun tarjimon lingvistik va ekstralingvistik bilimga ega bo‘lishi lozim, ya‘ni asliyat va tarjima tildagi iboralar, maqollar, nutqiy replikalar, sinonimlar, stilistik va ekspressiv vositalardan tashqari, ikkala til sohiblari hisoblangan xalqning tarixi, madaniyati va milliy mentalitetidan xabardor bo‘lishi talab qilinadi. Fransuzcha birliklarning badiiy matnda qo‘llanishi ijobiy va salbiy jihatlari aniqlandi. Kitobxon reallikni his qilishi va zahira bilimlarini boyitishi ijobiy tomon, fransuzcha leksikaga berilgan izohni o‘qish va anglash uchun alohida vaqt talab qilinishi va ba‘zan kontekstdagi syujetdan uzoqlashishi salbiy jihatlardir.

7. Ingliz va rus badiiy matnlarida qo‘llanilgan fransuz birliklari: evfemizm (ko‘proq siyosiy mazmun uchun), kinoya (shaxsiy munosabatlarni ifodalash uchun), metafora (shaxslar va predmetlarga tavsif berish uchun) va undovlar (his-tuyg‘ularni ifodalash uchun) stilistik va ekspressiv vositalar yordamida faollashuvi aniqlandi. Bundan tashqari, ko‘plab qarindoshlik terminlari aynan fransuz tilida berilgani ham ma‘lum bo‘ldi.

8. Ingliz va rus badiiy matnlarida fransuzcha birliklar savol berish, ogoh qilish, undash, istak bildirish, fikrni bildirish, tanqid qilish, maslahat berish va boshqa shu kabi turli pragmatik vazifalarni bajaradi. Mazkur vazifalarning amalga oshishi “ma‘lumotni jo‘natuvchi – matn – ma‘lumotni qabul qiluvchi” sxemasi asosida faollashadi. Muloqot ishtirokchilari va ulardagi munosabat turi matn mazmunini tanlash, uslubni tanlash va pragmatik ma‘noni ifodalovchi til vositalarni tanlash kabi vazifalarni aniqlab beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ХАЛМУРАДОВА ЗЕБИНИСО ШАВКАТОВНА**

**СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
ФРАНЦУЗСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В  
АНГЛИЙСКИХ И РУССКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ**

**10.00.06 - Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/Fil4898.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Насруллаева Нафиса Зафаровна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** **Каршибаева Улжон Давировна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Бузрукова Махина Мухаммадхоновна**  
доктор филологических наук (DSc), доцент

**Ведущая организация:** **Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «18» апрель 2025 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 61821) Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «3» апрель 2025 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 7 от «3» апрель 2025 года)



**Т.А. Бушуй**

Заместитель председателя научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**У.У. Кулдошев**

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы исследования.** В мировом литературоведении особое внимание уделяется феномену билингвизма, его структурно-семантической и прагматической сущности, отражению в художественных произведениях национально-культурной картины мира, в том числе использованию французских языковых единиц в английской и русской художественной литературе. Прагматические функции французских языковых единиц, используемых в художественном тексте, возможность выражения различных значений и влияние французской культуры на английскую и русскую литературу, а также освещение взаимосвязи между общечеловеческими, научно-просветительскими, духовно-культурными ценностями народов мира, сравнительное изучение национально-культурных особенностей языков представляют собой важнейшие проблемы современного языкознания и литературоведения.

В ведущих научно-исследовательских школах мира особое внимание уделяется изучению французского языка и литературы, французских заимствований и их месту в лексиконе языков мира, влиянию французской литературы и культуры на мировую художественную литературу. На протяжении нескольких столетий особое значение приобретают проблемы, связанные с изучением французского языка и литературы, которые выделяются своей изысканностью, гармоничностью и специфическими лингвокультурными особенностями, а также проблемы использования французской лексики в других языках, широким применением французских слов и выражений в произведениях мировой литературы. Для адекватной интерпретации замысла художественного произведения отличное владение французским языком, знание французской культуры позволяют не только понять, но и прочувствовать ту или иную жизненную среду, описанную в произведении. Этот процесс позволяет осмыслить различные прагматические функции и детально изучить выразительность, а также глубокий смысл художественного текста.

В независимом Узбекистане первоочередной задачей стало массовое обучение людей иностранному языку и доступ к чтению мировой литературы, ведь знание иностранного языка и литературы, несомненно, расширяет кругозор человека, знакомит его с определенным историческим периодом, культурой какой-либо эпохи, образом жизни и национальными стереотипами конкретного языкового сообщества. В нынешнюю динамичную эпоху, когда растет конкуренция, требующая от всех нас нового мышления, более продуктивной работы в целях коренного совершенствования системы образования Республики Узбекистан, обучения подрастающего поколения иностранным языкам, подготовки специалистов, свободно владеющих ими, перед педагогами поставлена задача гармоничного воспитания и ориентации молодежи на образовательный процесс путём внедрения передовых методов обучения с использованием современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий. Знание иностранных языков необходимо современному педагогу в любой области

для интеграции в мировую систему<sup>21</sup>. В частности, актуальным является изучение французского языка и литературы, их влияние на мировую литературу, исследование значения и прагматических функций французских языковых единиц, использованных в мировой литературе.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных рядом нормативно-правовых актов, таких как Указы Президента Республики Узбекистан: № УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования» от 16 февраля 2017 года, № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, № УП-6097 «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, также Постановления Президента Республики Узбекистан: № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года, № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» от 5 июня 2018 года, Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 года и другие нормативно-правовые акты в этой области.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** Среди зарубежных учёных, посвятивших свои научные исследования проблемам актуализации семантического, стилистического, лингвокультурологического и прагматического значения языковых единиц в художественном тексте, а также проблемам переводоведения, можно отметить следующие имена: Ш.Балли, В.Г. Гак, С.К. Левинсон (S.C.Levinson), П.Ньюмарк (P.Newmark), Е.Найда и К.Табер (E.Nida and C.Taber), Е.Сепир (E.Sapir), Дж.Шульц (J.Schultz) и др.<sup>22</sup> Например, С.К. Левинсон изучал прагматические функции

<sup>21</sup>Постановление Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков".

<sup>22</sup> Балли Ш. Французская стилистика. Изд. 2-е, стереотипное. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – 392 с.; Гак В.Г. Русский язык с сопоставлением с французским: Учебное пособие. Изд. 7-е, стереотипное. – Москва: URSS, 2014. – 264 с.; Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 419 p.; Newmark P. Multilingual matters. Language arts and disciplines, 1998. – 226 p.; Nida E. and Taber C. The Theory and Practice of Translation. – United Bible Society, 1969. – 312 p.; Sapir E. Language. The Status of Linguistics as

языковых единиц. Е.Найда и К.Табер проводили важные исследования по сохранению семантического, стилистического и прагматического значений художественного текста в переводе.

Использование иноязычных вкраплений в художественном тексте, а также лингвокультурологические и прагматические особенности языковых средств в художественном тексте освещаются в научных исследованиях ряда русских учёных-лингвистов:<sup>23</sup> Н.Ф.Алефиренко, В.В.Воробьёв, А.А.Залевская, Е.А.Китанина, Л.И.Комарова, Л.П.Крысин, Г.Г.Молчанова, Н.С.Найденова, Л.В.Чернец, Л.А.Юркина и др. Так, например, Е.А.Китанина изучала прагматическое значение заимствованной лексики. Н.С.Найденова анализирует влияние французского языка на мировую литературу и произведения мировой литературы, написанные на французском языке. Л.В.Чернец обращает внимание на речь персонажей в художественном произведении, состоящую из иноязычных слов.

Семантико-стилистические, прагматические и лингвокультурологические особенности языковых единиц художественного текста изучались в научных трудах отечественных учёных, таких как Д.У.Ашурова, Т.А.Бушуй, М.Дж.Даниева, У.Д.Каршибаева, Д.А.Киселёв, Г.К.Мирсанов, Г.Х.Рахимов, Ш.С.Сафаров, Ш.Усманова, М.Хакимов, Х.З.Хайруллаев и др.<sup>24</sup> Так, например, Д.У.Ашурова рассматривает художественный текст как экспонент культуры. Ш.С.Сафаров изучает лингвокогнитивные и прагматические особенности языковых единиц.

**Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.** Диссертационное исследование выполнено в рамках плана перспективных научно-исследовательских работ

---

a Science. // Linguistic Society of America, Dec. 1929. – Volume 5, № 4. – 207-214; Schultz J. Managing corporate communication: a cross-cultural approach. Macmillan International Higher Education, 2003. – 552 p.

